

MISR ARAB RESPUBLIKASI TASHQI SAVDOSINING RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

A.O.Ganiyev – ToshDSHI magistranti

Ushbu maqolada Misr Arab Respublikasi tashqi savdosining rivojlanish xususiyatlari, mamlakat eksport hamda importi tarkibi va ularning dinamikasi, Misrning asosiy eksport hamkorlari Yevropa Ittifoqi, Italiya, Buyuk Britaniya va Germaniya ekanligi, neft zaxiralari kelgusi o'n yillar davomida iqtisodiyot uchun yoqilg'i sifatida xizmat qilishi mumkinligi bayon etilgan.

Dunyo hamjamiyatida kechayotgan iqtisodiy jarayonlar turli omillarga bog'likligi Misr Arab Respublikasining tashqi savdo aloqalar siyosatida ham katta ahamiyatga ega. Mamlakatlarning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvida iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun erkin savdoning foydaliligi bizga ayon. Ko'p hollarda texnologik rivojlanishga xalqaro savdo natijasida yangi texnologiyalarning kirib kelishi orqali erishiladi. Bu savdoni erkinlashtirish lozim degan g'oyani mustahkamlaydi va rivojlanayotgan mamlakatlar rivojlangan mamlakatlarga iqtisodiy jihatdan yetib olish uchun imkoniyatlar taqdim etadi.

2000-yildan boshlab, byudjet-soliq, pul-kredit siyosati, xususiylashtirish va kichik biznes qonun hujjatlari, shu jumladan tizimli islohotlar Misrni yanada bozor iqtisodiyotiga yo'naltirilgan harakatlarga chorladi va MARni zamonaviy bozor iqtisodiy munosabatlariga o'tishga yordam berdi hamda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga ko'maklashdi¹.

Amalga oshirilgan islohotlar yillik makroiqtisodiy o'sish natijalarini kuchaytirdi. Xorijiy firmalar bandlik imkoniyatlarini oshirish va texnologiyalar kiritishga yordam berdi, yaxshiroq menejerlik va texnik ko'nikmalar orqali inson kapitali sifati yaxshilanib, iqtisodiyot diversifikatsiyasi amalga oshirildi.

Yetakchi neft firmalari neft va gazga boy zahiralarini ishlab chiqib byudjet daromadini oshirish uchun hukumatga yordam qildilar. Misrning asosiy eksport tovarlarini neft-kimyomahsulotlari, sitrus mevalar, guruch va quritilgan piyoz va tayyor kiyim-kechak, paxta, to'qimachilik, tibbiy va yana yaqindan beri sement, temir va kulolchilik kabi tabiiy gaz va nooziq-neft mahsulotlari tashkil etadi.

Misr mintaqaviy hamda global savdo tashkilotlariga a'zo bo'lib, ular "COMESA", "GAFTA", "Evropa Ittifoqi-Misr hamkorligi", Misr-Turkiya va Misr-EFTA erkin savdo shartnomalariga va 1995-yildan boshlab Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo boldi. Misr tashqi savdo hamkorlaridan asosiylarini AQSh, Italiya, Hindiston, Xitoy, Germaniya va Rossiya o'z ichiga oladi².

Misr juda uzoq vaqt davomida importga sezilarli darajada tayandi va natijada, o'tgan 40 yillikda tashqi savdo kamomadi saqlanib qolmoqda. Kamomad

¹World Trade Organization (2008). The WTO (<http://www.wto.org>)

²<http://www.intracen.org/country/egypt/#sthash.JrSZeQnF.dpuf>

Prezident Sadatning ochiq eshik siyosati natijasida 1974 va 1984-yillar o'rtasida sezilarli darajada oshdi va 1980-yilda 4,86 mlrd AQSH dollariga etdi. 1978- yilda Isroil bilan Kamp-David tinchlik shartnomalarini imzolanishi va neft daromadlarining oshishi importning keskin ko'tarilishiga olib keldi. Import hajmi, qarz to'lash va valyuta yetishmasligi tufayli, 1984 va 1986- yillar o'rtasida qisqa vaqt mobaynida qisqardi. 1985 yildan boshlab esa import hajmi o'sa bordi va o'sha yili 5,4 milliard dollarni tashkil etgan bo'lsa, 1995-yilda 11,74 mlrd. dollarga va 1999-yilda 15,8 milliard dollarga teng bo'ldi. Shu bilan bir vaqtda eksport 4,5 milliard dollar atrofida saqlanib qoldi.

1998 yildan boshlab, hukumat savdoni moliyalashtirishni qiyinlashtirdi va mamlakatda xorijiy valyutaning miqdorini nazoratiga olish orqali importni qisqartirishga harakat qilindi. Yuqori neft narxi bilan birga, importni qisqartirishga qaratilgan davlat siyosati 2000-yilda kamomadni kamayishiga olib keldi. Ammo xom ashyo yetishmaganligi sababli, ayniqsa, qurilish va sanoat tarmoqlarida, import hajmi eksportdan ortib ketishi davom etdi.

Misr keng doiradagi tovar turlarini import qiladi, shu jumladan, kapital talab va iqtisodiyotini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashina va uskunalar keltiriladi. Oziq-ovqatlar an'anaviy tarzda Misr importining 20 foiziga teng Shuningdek, kimyoviy, yog'och mahsulotlari va yoqilg'ilar ham import qilinadi. 1973-yilgacha, Misrning importining uchdan biri Sovet Ittifoqi bilan Sharqiy Evropa mamlakatidan kelar edi. Ammo, Kamp-David shartnomalari imzolanganidan so'ng, Misr G'arb savdo sheriklari bilan hamkorlikni kuchaytirdi. Bugungi kunga kelib Misrning tashqi savdosida, xususan, importida, Evropa Ittifoqi, ya'ni Germaniya, Italiya, Fransiya mamlakatlarining ulushi 40 foizdan ziyodroqni, Amerika Qo'shma Shtatlarining ulushi 15-20 foizini tashkil etmoqda.

1960 va 1980-yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi mahsulotlari Misr eksportida 71 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkich, 1995- yilda jami eksportning 20 foizigacha tushib, 1990-yillarda sezilarli darajada pasayib ketdi. Boshqa tomondan, yoqilg'i, mineral va metall eksporti 1960-yilda 8 foizdan 1995- yilga kelib 41 foizgacha darajada oshdi. Ishlab chiqarigan tovarlar eksporti ham 1993-yilda 2,9 milliondan, 1998-yilda 3,4 milliongacha o'sdi. Bu o'sish asosan tekstil va kiyim to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi otrishi evaziga yuz berdi va 1998-yilda umumiy eksportning 14 foizini tashkil etdi. Keyingi 1997-99 yillarda eksport hajmi o'sishi sezilarli darajada bolmadi va bunga sabab qilib quyidagi omillar ko'rsatildi: davlat boshqaruvi, valyuta bozorida raqobatning yo'qligi, zamonaviy texnologiyalar yetishmasligi va sanoat salohiyatining pastligi³. Bundan tashqari, Misr eksportchilarida marketing tajribasining yetishmasligi ularni eksport biznesda muvaffaqiyatli raqobatlasha olmasligini taqazo qilardi.

Misrning asosiy eksport hamkorlari Evropa Ittifoqi, ayniqsa, Italiya, Buyuk Britaniya va Germaniya shuningdek, Amerika Qo'shma Shtatlari bo'lgan. 1990-yillar boshida Misr asta-sekin mintaqada 1978 yil Kamp-David shartnomalarini imzolashidan so'ng yo'qotgan o'z nufuzli rolini qaytarib ola boshladi va qo'shni arab davlatlariga eksportni qayta tiklab oldi. Misr1995-yildan Butunjahon Savdo

³Radvan, Raafat. 'Poverty in Egypt'. Misr, Qohira. 2000 y.

Tashkiloti (BST)ga a'zo bo'ldi. Biroq Misr a'zolik talablarini bajarishi noaniq qolmoqda. Shartnoma rivojlanayotgan bozorlarga yaxshiroq kirib borishni ta'minlab bersada, biroq iqtisodiyotining himoyalangan tarmoqlariga, ya'ni sanoat va qishloq xo'jaligiga ta'siri xavotirli bo'lib qoldi. Davlat muhofaza siostidagi bu sohalar raqobatbardoshligi oshishi mumkin, lekin mamlakat importining keskin ortishi xavfi bor. 2010-yildga kelib Misr eksporti 29milliard AQSH dollarini taskil etdi va 2009- yilga nisbatan 22 foizga o'sdi.

Misr eksporti tarkibining dinamikasi (mlrd. AQSH dollari) ⁴

	2010	2011	2012	2013	2014 (yanvar- iyun)
Eksport	28,7	31,5	29,3	28,7	14,6
Shu jumladan:					
Neft va neft maxsulotlari	7,5	9,2	8,8	7,5	3,4
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	2,8	2,7	2,4	2,7	1,9
Oziq-ovqat	1,3	1,3	1,2	1,4	0,7
Metall va metal mahsulotlari	2,8	3,1	2,5	2,6	1
Kimyo mahsulotlari	4	4,8	4,8	5	2,6

Neft eksporti Misr iqtisodiyotida asosiy o'rin tutmoqda. Misr taxminan, kuniga 630,600 barrel neft ishlab chiqaradi va shundan kuniga 155,200 barrelini eksport qiladi. Biroq neat zaxiralari kelgusi o'n yillar davomida iqtisodiyot uchun yoqilg'i sifatida xizmat qilishi mumkin, hozirgacha isbotlangan neft zahiralari 37 milliard barrel va boshqa qidiruv ishlari olib borilmagan joylarda yana isbotlanmagan zahiralari mavjud.

Xom neft va neft mahsulotlaridan tashqari Misr shuningdek, metall mahsulotlari, paxta, to'qimachilik va kimyoviy maxsulotlar eksport qiladi. Ikkinchi jahon urushidan oldin, paxta Misr eksportining 90 foizini tashkil qilar edi va paxta to'qimachilik mahsulotlari eksporti 1970-yilga kelib 16 foizgacha o'sgan. 1985 yilga kelib esa neft exportning asosiy qismini, ya'ni 80 foizni tashkil qildi. Misr neft va boshqa mahsulotlar uchun eng katta eksport bozorlari Evropa Ittifoqi va AQSh bo'lib kelmoqda. Italiya Misr eksporti umumiy hajmining 9,4 foizini tashkil etib, eng katta ulushni egallagan. Misrning asosiy eksporter mamlakatkari quyidagilar: AQSH (7,1%), Hindiston (6,2%), Ispaniya (6,1%), Suriya (5,5%), Saudia Arabistoni (4,6%), Yaponiya (4,5%). Misr import hajmi 2009 yilga kelib 43,98 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi va 2008 yilgi ko'rsatkichdan 24 foiz o'sishni namoyon qildi. Jami import hajmi bo'yicha mamlakat dunyoda 49-o'rinda turadi.

AQSh Misrning eng yirik import hamkori bo'lib 10 foizdan ko'p ulushga ega. Xitoy (9,9%), Italiya (7,3%), Germaniya (6,8%) va SaudiyaArabistoni (4,9%) esa keyingi o'rinlarni egallaydi. Oziq-ovqat, asbob-uskunalar va yog'och mahsulotlari import qilinuvchi asosiy mahsulotlar hisoblanadi.

⁴http://www.economywatch.com/world_economy/egypt/export-import.html

Misr importi tarkibining dinamikasi (mlrd. AQSH dollari) ⁵

	2010	2011	2012	2013	2014 (yanvar- iyun)
Import	52	62	70	66	31
Shu jumladan:					
Neft va neft mahsulotlari	7,1	9,2	13	9,2	3,4
Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	5,3	7,9	8,3	7,5	3,8
Oziq-ovqat mahsulotlari	1,8	3	3,1	2,7	1,3
Metall va metal mahsulotlari	7,1	8	8,9	8,3	3,9
Kimyo mahsulotlari	6,7	8	8,9	8,3	3,9
Paxta va tekstil mahsulotlari	2,9	2,9	2,9	3,2	1,9
Dasturiy ta'minot va elektronika mahsulotlari	13,5	13,1	14	14,6	6,9

Avvalroq ta'kidlaganimizdek, Misr kommunistik blok bilan savdo ittifoqi tuzgan edi. Kamp-David tinchlik shartnomasi tuzganidan beri Misr AQSHdan katta moliyaviy va harbiy subsidiyalar qabul qila boshladi va AQShning sodiq ittifoqchisiga aylandi.

⁵http://www.economywatch.com/world_economy/egypt/export-import.html